



KAFIL
SUG'URTA

Sug'urta kompaniyasi
Страховая компания

**XUSUSIY AMALIYOT BILAN SHUG'ULLANUVCHI
NOTARIUSLARNING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY
SUG'URTA QILISH UCHUN OMMAVIY OFERTA**

“NOTARIUS”

Kod:58



KAFIL
SUG'URTA

Toshkent sh. 2022 y.

TASDIQLAYMAN
«KAFIL SUG'URTA» AJ
Boshqaruv raisi

F.A. Artikov

2022 yil «__» ____dagi

____-sonli buyruqqa 2-ilova

**XUSUSIY AMALIYOT BILAN SHUG'ULLANUVCHI NOTARIUSLARNING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI
MAJBURIY SUG'URTA QILISH UCHUN OMMAVIY OFERTA**

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida Ofertani Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Ofertani tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga sug'urta polisi beriladi va Oferta tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

-mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

-arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yo'li orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek Ofertani bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Ofertani tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili va telefon raqami, davlat ro'xatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomasi, litsenziya va bank rekvizitlari mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritilishi Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchiga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Oferta», «Oferta» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Umumiy shartlar

1.1 Sug'urtalovchi ushbu shartnomaga va Vazirlar Mahkamasining 04.04.2020 yildagi 199 -son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga (keyingi o'rinlarda Qoidalar deb ataladi) muvofiq sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, uchinchi shaxsga yoki naf oluvchiga ushbu shartnomaning amal qilishi davrida notarial harakat amalga oshirish natijasida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyatini oladi.

1.2 Ushbu shartnoma amal qilishi davrida qonunga zid notarial harakatni amalga oshirish natijasida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning aybi bilan jismoniy va yuridik shaxsga mulkiy zarar yetkazilganligi qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan belgilangan yoki sug'urta qiluvchi tomonidan tan olingan fakti sug'urta hodisasi hisoblanadi.

2. Ishlatiladigan asosiy atamalar va ularning ta'rifi:**2.1. Sug'urtalovchi**

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Litsenziyasi asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan “KAFIL-SUG'URTA” AJ

2.2. Sug'urta qildiruvchi

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar.

2.3. Qonuniy asosi

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 apreldagi 199-son qarori.

2.4. Sug'urta summasi

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyatlarning ma'muriy markazlarida- xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius faoliyatini tashkil etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining kamida ming baravaridan;
boshqa aholi punktlarida- xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius faoliyatini tashkil etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh yuz baravaridan kam bo'lishi mumkin emas.

2.4. Sug'urta mukofoti

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyatlarning ma'muriy markazlarida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius uchun eng kam oylik ish xaqining 10 baravari miqdorida, boshqa aholi punktlarida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar uchun eng kam oylik ish xaqining 5 baravari miqdorida belgilangan.

3. Shartnomaning kuchga kirishi va amal qilish muddati

3.1 Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va bir yil mobaynida amal qiladi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining boshlang'ich sanasidagi soat 00.00 daqiqadan, lekin sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining yoki sug'urta agentining hisob raqamiga tushgan kundan keyingi kundan oldin bo'lmagan sanadan boshlab kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining oxirgi sanasidagi soat 24.00 daqiqada tugaydi.

3.2 Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Pul mablag'larining Sug'urtalovchining hisobvarag'iga tushgan sanasi ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta mukofoti to'langan sana hisoblanadi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1 Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urtalovchidan ushbu shartnoma shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;
 - Sug'urtalovchining moliyaviy hisoboti bilan tanishish;
 - Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda sug'urta tovonini olish;
 - Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan shikoyat qilish.
- Sug'urta qildiruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2 **Sug'urta qildiruvchi:** ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotini qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda to'lashi;

- Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi munosabati bilan unga nisbatan qo'yilayotgan barcha talablar yoki unga qarshi boshlangan sud muhokamasi to'g'risida darhol xabar qilish, zarar yetkazilishi holatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni va vakolatli organlardan olingan sug'urta hodisasining sabablari hamda oqibatlarini, zararning xususiyati va miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni sug'urtalovchiga taqdim etish;

- Sug'urta hodisasi yuz berganda zararning oldini olish va (yoki) kamaytirish yuzasidan mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rish;

- Sug'urtalovchiga zararni qoplash to'g'risidagi uchinchi shaxslarning talabi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ishtirok etish imkoniyatini berish;

- Sug'urta hodisasi yuz berganligi uchun javobgar shaxsga nisbatan regress talab qilish huquqini sug'urtalovchiga o'tishini ta'minlashi shart.

Sug'urta qildiruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4.3 **Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:** Ofertani tuzishda sug'urta qildiruvchi shaxsdan xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha oldingi shartnomalar, sug'urta holatlari, sug'urta to'lovlari va majburiy Ofertani tuzish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etishini talab qilish;

- sug'urta qildiruvchi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi uchinchi shaxslarning talablari bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ishtirok etish;

- Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda zarar yetkazganlik uchun javobgar shaxsga nisbatan regress talab qilish huquqini taqdim etish;

- Qoidalarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta tovonini to'liq yoki qisman amalga oshirishni rad etish. Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4 Sug'urtalovchi: Sug'urta qildiruvchini majburiy Oferta shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;
qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda majburiy Oferta muddatidan oldin bekor qilinganda sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotini to'liq yoki qisman qaytarib berishi;

Sug'urta hodisasi yuz berganligi va sug'urtalovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar yetarli bo'lmagan taqdirda, ular olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida ariza beruvchiga taqdim etilmagan va (yoki) noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarning to'liq ro'yxati ko'rsatilgan holda xabar berishi;

Sug'urta hodisasi yuz berganda ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda sug'urta tovonini amalga oshirishi;

Sug'urta qildiruvchidan (naf oluvchidan) ariza olinganda sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) talablarini ko'rib chiqish va besh ish kuni ichida nizoni hal etishning keyingi tartibi ko'rsatgan holda yozma javob berishi;

Sug'urta hodisasi yuz berganda zararni oldini olish va (yoki) kamaytirish maqsadida sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan xarajatlarni qoplash;

O'z faoliyatini amalga oshirish natijasida sug'urta qildiruvchi va uchinchi shaxs yoki naf oluvchi to'g'risida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

Sug'urta tovonini o'z vaqtida amalga oshirmagan taqdirda naf oluvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda jarima to'lashi shart.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1 Tomonlar ushbu oferta bo'yicha o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

6. Nizolarni hal etish tartibi

6.1 Ushbu ofertadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

7. Yakunlovchi qoida

7.1 Ushbu shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va muddatidan oldin to'xtatish tartibi, mazkur shartnoma bo'yicha sug'urta da'volarini ko'rib chiqish tartibi, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash va sug'urta tovonini to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil «04» apreldagi 199-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga muvofiq belgilanadi

Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ni imzolash orqali sug'urta xizmatining mazmun-mohiyati, uning narxi (sug'urta mukofoti), sug'urta mukofotini qaytarish shartlari, xizmatning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, sug'urta agenti (vositachi ishtiroki mavjud bo'lganda) to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlar va sug'urta qoidalari bilan to'liq tanishib chiqqanini hamda ularga rozi ekanini tasdiqlaydi.